

XALQ OG'ZAKI IJODI

*Samarqand davlat chet tillar instituti
Narpay Xorijiy tillar fakulteti
2-bosqich talabasi
Erkinova Rayxona*

Anatatsiya: *Ushbu maqolada adabiyotning tarkibiy qismi bo'lgan xalq og'zaki ijodi haqida izlanish olib borish bilan bir qatorda "Alpomish" dostonidagi hozirgacha saqlanib qolgan yoki yo'qolib ketgan urf-odat, an'analar va bu dostonning xalq og'zaki ijodida tutgan o'рни, hozirgi zamondagi ijtimoiy o'рни haqida ham fikrlar bildirilgan.*

Аннотация: *В данной статье, помимо проведения исследования фольклора, являющегося составной частью литературы, обычаев и традиций, сохранившихся или исчезнувших в эпосе "Алпомиш", и роли этого эпоса в фольклоре, высказываются также мысли о его Социальной роль в настоящее время.*

Abstract: *In this article, in addition to conducting research on folklore, which is a component of literature, the customs and tradition that have been preserved or disappeared in the "Alpomish" epic and the role of this epic in folklore, thoughts are also expressed about its social role in the present time.*

Kalit so'zlar: *Xalq og'zaki ijodi, ijodkorlik, doston, an'ana, urf-odat, "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkumi.*

Ключевые слова: *Фольклор, творчество, эпос, традиция, "Алпомиш", серия "Горогли".*

Key words: *Folklore, creativity epic, tradition, "Alpomish", "Gorogli" series.*

1991-yil 1-sentabrda O'zbekiston mustaqil respublika deb e'lon qilindi. Yurtimizdagi bu ijobiy va o'nlab yillar davomida kutilgan yangilik butun o'zbek xalqini xursand qildi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq davlat o'tmish madaniy merosimizni qaytadan tiklash, odamlarning qalbida tutqunlikda yotgan qadriyatlarga keng yo'l ochish siyosatini amalga oshirdi.

Dunyodagi ayrim xalqlarda o'zining tarixiga oid yirik hajmdagi katta muhim voqea bayon etiladigan janrlar bor. O'zbek xalqida esa bu janr "doston" deb ataladi. "Doston" so'zi qiziq-qiziq voqealarni hikoya qilish, maqtash ma'nolarini anglatadi. Badiiy adabiyotimizda asosan ikki usulda yaratilgan dostonlarimiz bor. Birinchisi, asrlar davomida xalq og'zaki ijodida baxshilar tomonidan og'zaki tarzda kuylab kelingan dostonlar. Ikkinchisi, yozma shaklda shoirlar tomonidan ijod qilingan dostonlar. "Alpomish", Go'ro'g'li turkumidagi "Go'ro'g'lining tug'ilishi", "Malikai ayyor", "Ravshan", "Kuntug'mish", "Rustamxon" kabilar og'zaki dostonlar namunalaridir. Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Haydar Xorazmiyning "Gul va Navro'z", Navoiyning "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin",

“Layli va Majnun” kabi asarlari esa yozma adabiyotdagi dostonlar hisoblanadi. Shuning uchun yozma adabiyotdagi dostonlarni ogʻzakidan ajratish lozim boʻladi.¹

Dostonni baxshilar kuylaydilar. Oʻtmishda “baxshi” xalqona usullar bilan bemorlarni davolaydigan tabib, baʼzi bir hududlarda esa bu soʻz ustoz maʼnolarini anglatgan. Hozirgi kunda esa bu soʻz asosan xalq dostonlarini kuylaydigan sanʼatkorni anglatadi. Shoirtabiat baxshi hech qachon dostonni bir xil, yaʼni oʻzgarishsiz ijro etmaydi. Professor Hodi Zarifovning taʼkidlashlaricha, bulungʻurlik Amin baxshi “Alpomish” dostonini uch oy davomida tinglovchilarini sira zeriktirmay kuylagan ekan. Baxshi doston aytar ekan, “Alpomish dostonida Alpomish gapirganida Alpomishning mardligini, Barchin gapirganida goʻzal qizning yuzini koʻz oldimizda gavalantiradi. Shu sababli doston kechalari barcha tinglovchi uchun katta bayram boʻlgan. Dostonlar hajm jihatidan chegaralanmaydi. Doston ijrosi ham baʼzan soatlab, baʼzan kunlab davom etgan. Bunda doston mazmuni, baxshining mahorat darajasi muhim hisoblangan. Qashqadaryo, Surxandaryo, Buxoro, Xorazm, Namangan viloyatlarida va Qoraqalpogʻiston respublikasida xalq dostonlari ijro etiladi. Samarqand dostonchiligida hajm jihatidan katta dostonlar nasrdan va epik sheʼrlardan iborat boʻladi. Xorazm dostonchiligida dostonlar nasriy parchalardan va lirik sheʼrlardan iborat boʻladi. Bu dostonlarning hajmi katta boʻlmaydi. Namanganda ham dostonlarning hajmi kichik, ammo ularning matnlari Samarqand dostonchiligi kabi nasrdan va epik sheʼriy parchalardan tashkil topadi.

Xalq dostonlari alohida mahorat bilan kuylangan markazlar shu hudud nomi bilan maktab sifatida atalgan. “Xozirgi kunda oʻzbek folklorshunosligida Bulungʻur, Qoʻrgʻon, Shaxrisabz, Qamay, Sherobod, janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari- baxshilik sanʼatining ajoyib markazlari aniqlangan”.²

Bilamizki, bitta xalq ogʻzaki ijodida olam-olam maʼno singdirilgan boʻladi. Shunday ekan, baʼzan bitta xalq ogʻzaki ijodining yaratilishi uchun asrlar davomida xalq ijod bilan shugʻullanishga majbur boʻladi. Xalq ogʻzaki ijodida shunday asarlar ham borki, ulardan xalqimiz tarixiga oid voqealar mardligi, jasurligi, qahramonligi bilan dong taratgan botirlarimiz faoliyati bilan uygʻun qoʻyilgan holda aks etadi. Bunday asarlarda koʻtarinki ruh ham alohida sezilib turadi. “Alpomish” va Goʻroʻgʻli turkumiga oid ayrim dostonlar ana shunday asarlar qatoridan oʻrin oladi.

“Alpomish” xalqimiz ogʻzaki ijodidagi eng qadimiy, badiiy jihatdan mukammal, olimlar tomonidan koʻp oʻrganilgan doston hisoblanadi. Bunda xalqimizning uzoq oʻtmishi, rasm-rusumlari, hayot tajribasidan oʻtgan anʼanalari, kurashlari oʻzining badiiy ifodasini topgan. Baxshilar mahorati bu dostonni ijro etish darajasi bilan oʻlchanadi. Ustoz dostonchilar oʻz sanʼatlarini koʻpincha “Alpomish”ni kuylash bilan koʻrsatganlar, hurmat topganlar. Mustabid sovet tuzumidagi qatagʻon yillarida “Alpomish”ni kuylash ham

¹ Madaev O., Sobitova T. Xalq ogʻzaki poetik ijodi. Toshkent, “Sharq”, 2001.

² Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi. Toshkent. “Oʻqituvchi”, 1990

taqiqlangan, “xalqqa zarar keltiruvchi asar”- deb qoralangan (1952). Ma’lum bo’ladiki, “Alpomish” taqdiri asrlar davomida o’zbek xalqi tarixi bilan chambarchas bog’liq.³

“Alpomish” dostoning ming yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday degan edi: “Alpomish” – o’zbekning o’zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o’tkazib kelayotgan qahramonlik qo’shig’idir”.⁴

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, xalqimiz mustaqillikka erishganidan so’ng o’zbekona urf-odatlar, rasm-rusumlar, asrlar davomida yaratilgan dostonlar, ertaklar, qo’shiqlar haqida alohida g’urur bilan gapirila boshlandi. O’tmishda alla bilmaydigan kelinlarni, doston eshitmagan kishilarni uchratish qiyin bo’lgan ya’ni bunday insonlar juda oz bo’lganlar. Afsuski, hozirda biror kishini maqtaydigan bo’lsak, alla ayta olishini, chiroyli va ma’noli so’zlashini fazilat qilib ko’rsatamiz. Demak, bugungi kunda o’zbek qadriyatlarini juda yaxshi biladigan, uning bulog’idan suv ichgan, o’zbekona muomalani butun qalbiga singdirgan o’zbeklar biroz kamayib qolibdi-da.

Oilada ism qo’yish ham alohida an’ana hisoblangan. Odatga farzandga ismni xalq orasida katta obro’ga ega bo’lgan, uvali-juvali qariya qo’ygan. Fozil Yo’ldosh o’g’lidan yozib olingan “Alpomish” dostonida Boybo’ri va Boysari farzandlariga ism qo’yish lavhasini eslab, buni misol qilib olsak bo’ladi. O’zbeklarda Hasan-Husan; Fotima-Zuhra; Ortiq; Navro’z; Ramazon kabi ismli farzandlar o’zining ismi bilan tug’ilishi haqida eshitganmiz. Qo’shimcha qilib aytadigan bo’lsak, bolaga Muhammad, Ali, Umar kabi ismlar og’irlik qilishi va bunday ismli bolalar o’zlariga ehtiyot bo’lishlari kerakligi haqida ham eshitganmiz. Har holda har bir inson vaqt o’tgan sari ismiga mos tabiatga ega bo’lishini hayot tajribasi ham tasdiqlaydi. “Alpomish” dostonidagi Alpomish, Go’ro’g’li turkumidagi Go’ro’g’li obrazlari afsonaviy obrazlar hisoblanib, ular butunlay hayoliy obrazlar chunki ular bitmas-tuganmas kuch-qudratga, yuksak fazilatlarga ega bo’ladi.

Dunyoda ko’p emas badiiy jihatdan mukammal, hajm jihatdan katta asrlar yaratgan xalqlar bor. Bularga misol qilib, “Manas”, “Kolmala”, “Nartlar”ni olsak bo’ladi. O’zbek xalqi esa o’zining “Alpomish”, Go’ro’g’li haqidagi dostonlari bilan mana shunday kam sonli xalqlar qatoridan munosib o’rin egallagan. “Alpomish” dostoni badiiy jihatdan ham xalqimiz og’zaki ijodidagi eng mukammal asarlardan biri hisoblanadi. “Alpomish” dostoni o’xshatish, mubolag’a, sifatlash kabi badiiy vositalarga juda boy. Ma’lumotlarga qaraganda, Fozil Yo’ldosh o’g’lidan yozib olingan 30 dan ortiq dostonlar taqdir taqozosi bilan yo’qolgan, ammo faqat “Alpomish” dostonigina saqlanib qolgan.

Birinchi Prezidentimiz aytgan nutqlarining o’zida og’zaki ijodimizni nima uchun o’rganamiz, degan savolga javob berilgan. Xalq urf-odatlarini bilmasdan o’zbekman deyish noto’g’ri. O’zbek millatiga mansub insonning o’zbekman deyishga haqqi yo’q ekan, u odam xalqiga, millatiga ham hurmatsizlik qilgan bo’ladi.

³ Madaev O., Sobitova T. Xalq og’zaki poetik ijodi. Toshkent, “Sharq”, 2001.

⁴ Prezident Islom Karimovning “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimda so’zlagan nutqi. “Xalq so’zi” gazetasi, 1999-yil, 9-noyabr.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Madaev O., Sobitova T. Xalq ogʻzaki poetik ijodi. Toshkent, “Sharq”, 2001.
2. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi. Toshkent. “Oʻqituvchi”, 1990
3. Prezident Islom Karimovning “Alpomish” dostonining 1000 yilligiga bagʻishlangan tantanali marosimda soʻzlagan nutqi. “Xalq soʻzi” gazetasi, 1999-yil, 9-noyabr.